

YUK VAGONLARIDA YUKLARNI TASHISH VA QABUL QILINGAN YUKLARNI YUK  
BULIDA SAQLASH BO'YICHA XIZMATLAR KO'RSATISH UCHUN

SHARTNOMA № 1/4

Toshkent sh.

"O'zbekiston temir yo'lovchi" Aksiyadorlik Jamiyati "Toshkent Markaziy Vokzal" filiali nomidan  
2022-yil \_\_\_\_\_ kungi № \_\_\_\_\_-sonli ishonchnoma asosida "Toshkent Markaziy Vokzal" filiali  
boshlig'i A.T.Nodmatov (bundan buyon matnlarda "IJROCHI" deb yuritiladi), bir tomondan va  
Sh. I. Ibratov nomidan Mijoz asosida ish  
yurituvchi A.C. Cagayev (bundan buyon matnlarda "MIJOZ" deb nomlanadi),  
ikkinchi tomondan ushbu shartnomani imzoladi. Quyidagi:

### I.Shartnomaning mazmuni

1.1. Ushbu shartnoma yo'lovchi poeyzdlari tarkibidagi yuk vagonlarida "Ijrochi" tomonidan  
"O'zbekiston temir yo'llari" AJ va MDH, Boltiqbo'yi davlatlari, "Xalqaro yo'lovchilar tashish  
shartnomasi" ishtirokchilari bo'lgan davlatlar temir yo'llarida yuklarni tashish shartlari va hisob-  
kitoblarni, shuningdek ko'rsatilgan qo'shimcha xizmatlar uchun haq to'lash tartibini belgilaydi.

1.2. Ushbu shartnomada "Mijoz" yukini "Ijrochi" tomonidan saqlash joyida saqlash bo'yicha xizmatlar  
ko'rsatish tartibi joriy tariflarga muvofiq ushbu xizmatlar uchun to'lovlarni amalga oshirish tartibi  
belgilab qo'yilgan.

### II.Tomonlarning majburiyatlari

2.1. "Ijrochi"ning majburiyatlari:

2.1.1. Yuklarni qabul qilish sanasi va vaqti, yuklarning nazorati "O'zbekiston temir yo'llari" AJning  
"Temir yo'l transportida yo'lovchilar, bagaj va yuk bagaj tashish" qoidalarida asosida amalga oshiradi.

2.1.2. Belgilangan qoidalar va tariflarga muvofiq tashuv harajatlarini ACY-«Экспресс» kassa apparati  
yordamida hisoblab chiqadi va tashuv narxlarini "Mijoz" bilan kelishib oladi.

2.1.3. Yuk omborida yuklarni saqlash uchun joy ajratadi va ushbu yuklarni omborga tushirish paytidan  
boshlab yuk egasiga topshirilgunga qadar uning to'liq xavfsizligini ta'minlaydi.

2.1.4. Yuklari yetib borishi to'g'risida o'z vaqtida telefon orqali xabar beradi.

2.1.5. Agar yuklarni tashish uchun yuk aravalarini kerak bo'lsa taqdim etadi.

2.1.6. Amaldagi tariflarga muvofiq ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovni hisoblab chiqadi.

2.2. "Mijoz"ning majburiyatlari:

2.2.1. 10 kundan kechiktirmay "Ijrochiga" rejalashtirilgan yuklarni tashish to'g'risida jo'natish sanasi va  
stantsiyalari, og'irligi va tashish jarayonini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan boshqa ma'lumotlarni  
ko'rsatgan holda ariza yuboradi.

2.2.2. "Mijoz" tashuv harajatlari asosida tayyorlangan hisob-varaqalarga muvofiq tomonlar kelishuvi  
bilan barcha kerakli to'lovlarni to'laydi.

2.2.3. Barcha transport, bojxona va boshqa zarur hujjatlarni rasmiylashtiradi.

2.2.4. Qoidaga binoan barcha to'lovlarni, o'rnatilgan tartibdagi hisob-kitob bo'yicha amalga oshiradi.

### III.To'lov tartibi

3.1. "O'zbekiston temir yo'llari" AJ va MDH, Boltiqbo'yi davlatlari, "Xalqaro yo'lovchilar tashish  
shartnomasi" ishtirokchilari bo'lgan davlatlar temir yo'llarida yuklarni tashish "yuk tashish tariflari",  
ushbu transport shartnomasi asosida rejalashtirilgan yuk vagonining jo'nab ketishidan 2 kun oldin  
to'lovni kechiktirmasdan 100% oldindan (15% QQS bilan) to'lash orqali amalga oshiriladi.

3.2. Yuklarni saqlash uchun oldindan 100% to'lov (15% QQS bilan) ushbu shartnomaga ko'ra yuk  
bo'limi shartlari asosida amalga oshiriladi.

### IV. Tashish hujjatlarini ro'yxatdan o'tkazish tartibi

4.1. Yuklarni tashish uchun qabul qilish va hujjatlarni rasmiylashtirish yuk kassasiga to'lov varaqasi va

Ushbu yuk uchun belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan bojxona deklaratsiyasi topshirilgandan so'ng amalga oshiriladi.

4.2. Yuklarni yetkazib berish barcha bojxona protseduralaridan o'tgandan so'ng amalga oshiriladi. "Mijoz" tomonidan yuk bo'limi kassasiga to'lov varag'i va qabul qiluvchiga ishonchnoma taqdim etilishi bilan "Chiqarishga ruxsat berildi" bojxona shtampi asosida yuk yo'l varag'i tasdiqlanadi.

#### V. Tomonlarning javobgarligi

5.1 Amaldagi shartnomaga muvofiq o'z majburiyatlarini bajarishda tomonlar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi asosida, bajarilmaganligi yoki noto'g'ri bajarilganligi uchun moddiy javobgar bo'ladilar.

5.2. Agar tashuvdagi muvaffaqiyatsizlik fors-major holatlarning natijasi bo'lsa, ushbu kelishuvda tomonlar majburiyatlarni bajarmaganliklari uchun javobgarlikdan ozod qilinadilar.

5.3. "Mijoz"ga transport, bojxona va boshqa kerakli hujjatlar noto'g'ri ro'yxatdan o'tkazish natijasida yetkazilgan zarar uchun "Ijrochi" javobgar emas.

5.4. "Mijoz" "Ijrochi" ga taqdim etilgan ma'lumotlar va hujjatlarning to'g'riligi uchun javobgardir.

5.5. "Mijoz" tomonidan ushbu shartnomada ko'rsatilgan talablar bajarilmagan taqdirda, "Ijrochi" "Mijoz"ning yuklarini yubormaslik huquqini o'zida saqlab qoladi.

5.6. "Mijoz" tomonidan ushbu shartnomada ko'rsatilgan talablarni bajarmagan taqdirda, "Ijrochi" "Mijozga" yuklarini bermaslik huquqini o'zida saqlab qoladi.

#### VI. Nizolarni hal qilish tartibi

6.1. Ushbu shartnomani bajarish paytida tomonlar yuzaga kelishi mumkin bo'lgan barcha kelishmovchiliklarni hal qilish uchun barcha choralarni ko'rishi zarur. Qachonki muzokaralar kelishuvga erishilmagan, nizolar va kelishmovchiliklar bartaraf etilmaganda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi asosida iqtisodiy sudga tegishli tartibda hal etiladi.

#### VII. Umumiy holat

7.1. Ushbu shartnomaga ajralmas qismi sifatida kiritilgan qo'shimchalar va o'zgartirishlar haqiqiy hisoblanadi, agar ular yozma ravishda tuzilgan va shartnoma tuzuvchilar tomonidan imzolangan bo'lsa.

7.2. Hech bir tomon ushbu shartnomada ko'zda tutilgan huquq va majburiyatlarini boshqa tomonning yozma roziligisiz uchinchi tomonga o'tkazishga haqli emas.

7.3. Ushbu shartnoma 2 nusxada, har bir tomon uchun bittadan tuzilgan, bir xil kuchga ega.

7.4. Ushbu shartnoma imzolangan paytdan boshlab kuchga kiradi va 2022 yil 31-dekabr gacha amal qiladi.

#### VIII. Tomonlarning huquqiy manzili va tafsilotlari

##### «IJROCHI»

«O'ztemiryo'lyo'lovchi»AJ

Toshkent sh., Turkiston7

Hisob/r: 20210000603717281003

O'zR MB Mirobod bo'limi

MFO: 00875; STIR: 202472894

IFUT: 49100



«O'ztemiryo'lyo'lovchi»AJ

«Toshkent Markaziy Vokzal» filiali boshlig'i

A.T. Xolmatov



##### «MIJOZ»



Ushbu shartnoma amaldagi Fuqarolik qonunchiligi va O'zbekiston Respublikasining 08.29.1998 yildagi Qonuni talablariga javab beruvchi "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy asoslari to'g'risida". Ushbu shartnomadagi shartlar, tomonlarning javobgarligi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi talablariga zid emas.

Filial yuristi: \_\_\_\_\_